

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2023
MAXSUS SON

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.A.Ganiyeva	
O'zbek va ingliz tillaridagi kelasi zamon shakllarining polifunksionalligi	6
G.S.Mirzayeva	
Lingvokulturmalar adabiy matnni ochib beruvchi kalit sifatida	10
S.N.Fazildinova	
The use of hyperbole in Alisher Navoi's works	14
Sh.T.Axmadjonova	
O'zbek tilshunosligida nutq uslublarining o'rganilish talqini	17
D.S.Usmonova	
Exploring values through phraseological units: a study of axiology in language	20
D.S.Usmonova, K.U.Davlyatova	
Gender features of children's animation and emerging translation challenges	24
N.R.Maxmudova	
O'zbek va jahon tilshunosligida ornitonimlarning o'rganilishi xususida	28
M.Saminjonov	
Rasmiy-jamoaviy qasamlar	31
I.M.Jo'rayev	
Qadimiy qadriyatlar	37
D.R.Ubaydullayeva	
Ingliz va o'zbek tillarida shart komponentli gipotaksemlarning struktural-semantik jihatlarini qiyosiy tadqiqi	41
N.Q.Adamboeva	
Ingliz tili badiiy asarlaridagi xushmuomalalik kategoriyasining maksimalari	49
Z.M.Dadahonova	
Components of knowledge control	53
L.Teshebayeva	
O'zbek va ingliz ertaklarida mifonim va spellonimlar	56
Ш.М.Артикова	
Интегральные и дифференциальные признаки тавтологии и плеоназма	60
M.M.Nurmatova	
Paralingvistika jonli muloqot tarjimoni sifatida	66
S.I.Quziyev	
Oliy ta'lim muassasalarida kasbga yo'naltirilgan chet tilini o'qitishning xususiyatlari	70
T.Z.Ismonova	
Problems and solutions of grammar translation method	76
N.A.Komilova	
Zamonaviy tilshunoslikda gender nazariyasi asoslari	80
D.X.Madazizova	
The significance of text and discourse in enhancing communicative competence	83
S.A.Yusupova	
Morphemic units expressing honour in different system languages	86
N.Sidikova	
Stevan Sveygning "Noma'lum ayol maktubi" hikoyasida ayol ruhiyati tasviri	91
Sh.X.Nuritdinova	
Nemis va o'zbek tillarida kelishik kategoriyasi tipologiyasi	94
N.K.Abbasova, N.A.Abdullaeva	
Semantic analysis of english phrasal verbs	98
B.A.Mukhtorova	
The "Concept" in linguistics	102
R.A.Ortiqov	
Ulug'bek hamdamning "Ota" asaridagi monologlar tahlili	106
Sh.O.Abdiloyev	
Zoonim frazeologizmlar xalq tarixi va madaniyati in'ikosi	110

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI KELASI ZAMON SHAKLLARINING POLIFUNKSIONALLIGI

ПОЛИФУНКЦИОНАЛЬНОСТЬ В ФОРМАХ БУДУЩЕГО ВРЕМЕНИ УЗБЕКСКОГО И АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКОВ

POLYFUNCTIONALITY IN FORMS OF FUTURE TENSE OF UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Ganiyeva Dildoraxon Azizovna¹

¹Farg'ona davlat universiteti ingliz tili dotsenti, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya

Muayyan xorijiy tilni o'rganish jarayonida bu tildagi fe'l zamonlari mavzusi eng keng yoritiladigan qismlardan biri sanaladi. Chunki biror fikrni to'g'ri ifodalash davomida turli vaqtda sodir bo'lgan voqealarni ko'rsatib berish uchun fe'l zamonining mos shakli qo'llanilishi katta ahamiyatga egadir. Bunda dunyo tillaridagi zamon grammatik kategoriyasi fe'l bilan ifodalangan harakat voqelangan vaqtni ko'rsatish uchun ishlatiladigan grammatik shakllar yig'indisi sifatida talqin etiladi. O'zbek va ingliz tillarida fe'llarning hozirgi, o'tgan va kelasi zamon shakllari mavjud deb hisoblansa-da, barcha tadqiqotchilar ham bu fikrni qo'llab-quvvatlamaydilar. Bunga, albatta, ushbu shakllarga xos sinkretiklik tabiati, bu xususiyatning nutqda polifunksional tarzda namoyon bo'lishi sabab bo'ladi. Mazkur maqolada chog'ishtirilayotgan tillardagi fe'llar sohasini o'rgangan turli tadqiqotchilar fikr-mulohazalari ko'rib chiqiladi va ularga faol munosabat bildirilib, o'zbek va ingliz tillaridagi kelasi zamon shakllarining mavjudligi dalillanadi. Bunda sinkretik xususiyatga ega bo'lgan zamon shakllarining polifunksional jihatlari ikki tildagi misollarni chog'ishtirish orqali izohlanadi. Tadqiqotlar va misollar tahlili asosida qiyoslanayotgan tillarda kelasi zamon shakllari o'zining sinkretik tabiatini reallashtirishi va polifunksional xususiyatini namoyon qilishi haqida xulosa qilinadi.

Аннотация

В процессе изучения определенного иностранного языка тема времен глаголов в этом языке считается одной из наиболее широко освещаемых частей. Потому что очень важно использовать соответствующую форму глагола, чтобы показать события, произошедшие в разное время, в правильном выражении идеи. При этом грамматическая категория времени в языках мира трактуется как совокупность грамматических форм, используемых для обозначения времени действия, выраженного глаголом. Хотя считается, что в узбекском и английском языках существуют формы глаголов настоящего, прошедшего и будущего времени, не все исследователи поддерживают это мнение. Это, конечно, обусловлено характером синкретичности этих форм, полифункциональным проявлением этих особенностей в речи. В данной статье рассмотрены мнения различных исследователей, изучавших область глаголов в противопоставляемых языках, и выражено авторское отношение к ним, а также доказано наличие форм будущего времени в узбекском и английском языках. Полифункциональные аспекты синкретических времен объясняются путем сравнения примеров из двух языков. На основе проведенного исследования и анализа примеров делается вывод, что формы будущего времени в сравниваемых языках реализуют свою синкретическую природу и проявляют полифункциональные характеристики.

Abstract

In the process of learning a certain foreign language, the topic of verb tenses in this language is considered one of the most widely covered parts. Because it is very important to use the appropriate form of the verb to show the events that happened at different times in the correct expression of an idea. In this case, the grammatical category of tense in the languages of the world is interpreted as a set of grammatical forms used to indicate the time of the action expressed by the verb. Although it is believed that there are present, past and future forms of verbs in Uzbek and English, not all researchers support this opinion. This, of course, is caused by the nature of syncretic characteristic of these forms, the polyfunctional manifestation of these features in speech. In this article, the opinions of various researchers who have studied the field of verbs in the contrasted languages are considered, and the author's attitude towards them is expressed, and the presence of future tense forms in Uzbek and English languages is proved. Polyfunctional aspects of syncretic tenses are explained by comparing examples from the two languages. On the basis of conducted research and analysis of examples, it is concluded that future tense forms in the compared languages realize their syncretic nature and show their polyfunctional characteristics.

Kalit so'zlar: sinkretizm, polifunksionallik, fe'l, zamon grammatik kategoriyasi, hozirgi zamon shakli, kelasi zamon, hozirgi-kelasi zamon.

Ключевые слова: синкретизм, полифункциональность, глагол, грамматическая категория времени, форма настоящего времени, будущее время, настоящее-будущее время.

Key words: syncretism, polyfunctionality, the verb, a grammatical category of tense, a present tense form, the future tense, the present-future tense.

KIRISH

O'zbek va ingliz tillaridagi fe'l so'z turkumiga xos grammatik kategoriyalardan biri zamon kategoriyasidir. Biror xorijiy tilni o'rganishda fe'l zamonlari mavzusi eng keng yoritiladigan qismlardan hisoblanadi. Buning asosiy sababi o'rganilayotgan tilda biror fikrni to'g'ri ifodalashda turli vaqtda sodir bo'lgan voqealarni ko'rsatib berish uchun fe'l zamonining mos shakli qo'llanilishi muhim ekanligi bilan izohlanadi.

Zamon grammatik kategoriyasi fe'l bilan ifodalangan harakat voqelangan vaqtni ko'rsatish uchun ishlatiladigan grammatik shakllar yig'indisidir.

Asosan fe'lning uchta: hozirgi, o'tgan va kelasi zamon shakllari mavjud deb hisoblansa-da, o'zbek tilida kelasi zamonning mavjudligi haqidagi fikrni fe'l so'z turkumini tadqiq qilgan barcha tilshunoslar ham to'g'ri deb hisoblashmaydi. Xuddi shuningdek, ingliz tilida ham kelasi zamon shakllarining mavjudligi haqidagi qarashlar bahslidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek tilida kelasi zamonning mavjudligi haqidagi fikrni fe'l so'z turkumini tadqiq qilgan barcha tilshunoslar ham to'g'ri deb hisoblashmaydi. A.Hojiyev bu zamon shaklini "hozirgi-kelasi zamon formalari" deb ataydi va ikki formant, ya'ni *-a/-y* hamda *-(a)r* qo'shimchalarining ma'no va funksiyalari haqida to'xtaladi [5:157]. U.Tursunov va boshqalar *-a*, *-y* formantini "Fe'lning hozirgi zamon shakllari" sarlavhasi ostida "hozirgi-kelasi zamon shakli" deb alohida paragraf sifatida beradilar. Kelasi zamon shakllari sifatida esa *-ajak*, *-gu* (*-ku*, *-g'u*), *-gay*, *-moqchi*, *-(a)r*, *-digan* qo'shimchalari bilan yasalgan fe'llarni sanaydilar [4:142]. Sh.Rahmatullayev *-a/-y*, *-(a)r*, *-digan* va *-ajak* qo'shimchalari haqida fikr yuritadi [2:201]. Lekin U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlarning darsligida mazkur formant bilan yasalgan, shaxs-son qo'shimchalari bilan tushlangan fe'l shaklining ba'zi funksiyalari sanaladiki [4:343], ularni ravishdosh hosil qiluvchi affiksning vazifalari deb hisoblash noto'g'ri.

Ingliz tilidagi fe'l zamonlari to'g'risida ham fikrlar turlicha. Bu o'rinda ta'kidlash kerakki, ingliz tilini o'rganishga mo'ljallangan juda ko'p adabiyotlar va internet saytlarida mazkur tilda 16 ta, hatto 28 ta fe'l zamonlari borligi ko'rsatiladi. Bunday talqinlarda fe'llardagi aspekt (vid), nisbat, shuningdek, A.Smirnitskiy tomonidan ilgari surilgan vaqtga daxldorlik kategoriyasi [3:91] yoki F.Polmer tomonidan berilgan faza (phase) grammatik kategoriyasi ham fe'l zamonlari shakli hisoblanadi. Biroq jahon tilshunosligidagi bir qator nazariy qarashlar mazkur konsepsiyani ma'qullamaydi.

F.Polmer esa faqat hozirgi va o'tgan zamon shakli mavjud, kelasi zamon shakli mavjud emas, degan fikrni ta'kidlaydi: "*I take*, *I took* va *I shall take* kabi shakllar hozirgi, o'tgan va kelasi zamonlarga misol bo'ladi. Bunday an'anaviy hukm uchun bu tahlillarda o'rin yo'q. Buning asosiy sababi *I take* va *I took* birlamchi paradigma doirasida bir-biriga qiyoslash mumkin bo'lgan fe'l zamonlariga misol bo'luvchi shakllar bo'lsa, *I shall take* modal paradigmaga kiradi" [15:37]. Shuningdek, kelasi zamonni ifodalashda ko'p foydalaniladigan davomiy hozirgi zamon shakllari yoki *be going to* shaklini ham kategorial shakllar deb hisoblamaydi. R.Xaddlstin va Dj.Pallim ham ingliz tilida fe'llarning hozirgi va o'tgan zamon shakllari borligi haqidagi fikrni ilgari suradilar [10:51].

R.Deklerk ingliz tilida zamon grammatik kategoriyasi hozirgi, o'tgan va kelasi zamonlarga bo'linishini aytadi va yuqoridagi kabi qarashlarga nisbatan tanqidiy munosabat bildiradi. Asos sifatida zamon tushunchasiga alohida shakl orqali maxsus vaqt ma'nosining lingvistik ifodasi deb berilgan ta'rifdan kelib chiqqan holda, *will+hozirgi zamon infinitiv* shakli bunday ta'rifga mos keladi va shuning uchun ingliz tilida kelasi zamon mavjud deb ta'kidlaydi [7:103].

NATIJA VA MUHOKAMA

Ingliz tilida *will / shall* shakllari hamda *will/shall be +V+-ing* kabi ko'rsatkichlar yordamida kelasi zamon fe'llarining birlamchi va nutq vaziyati ta'sirida ularning ikkilamchi funksiyalari namoyon bo'ladi.

O'zbek tilidagi *-a/-y* qo'shimchasi nutq momentida sodir bo'layotgan va undan keyin ham davom etadigan harakatni ifodalaydi:

Lekin bir shart bilan: ikkinchi, uchinchi smenada faqat o'z ixtiyori bilan ishlovchilar ishlaydilar. Buning uchun ularga kunduzgiga qaraganda ikki baravar ko'p ish haqi to'lanadi (Z. Qurolboy qizi, Mashaqqatlar girdobi).

Yuqoridagi gapda *ishlaydilar* fe'lidan anglashilgan harakat nutq paytida bajarilayotganini va bunda ushbu harakatning keyin ham davom etishiga ishorani bildiriyapti.

Fe'ning mazkur ko'rsatkichi nutq momentidan keyin sodir bo'ladigan harakatni ifodalaydi: "Baribir bu yerda uzoq qolmayman, ko'nglim sezib turibdi, hech qanday javob kelmagan taqdirdayam nimadir bo'ladi-yu, bu yerdan ketaman. Ammo hunar o'rganib qo'ysam yomon bo'lmas", derdim ichimda yangi mashg'ulot jarayonini kuzatib...(Z.Qurolboy qizi, Mashaqqatlar girdobi).

Bu gapda *-a/-y* (*bo'ladi, ketaman*) formanti kelasi zamondagi fe'lni hosil qilish funksiyasini bajaryapti.

Bu yerdagilarning nazarida ohak pishirish eng oson ishdek tuyuladi. (Z.Qurolboy qizi, Mashaqqatlar girdobi)

Yuqoridagi gapda esa *-a/-y* qo'shimchasi bilan yasalgan fe'l doimiy vaqtni bildirish vazifasini bajaryapti.

Eshikdan osmon etagidagi yulduzlar ko'rinar, ular ham bu izg'irinda sovqotib, shuning uchun zo'rg'a mitillayotganga o'xshar edi. Quyun qo'rboshi bir tekis nafas olib uxlayapti. Qorong'ida Mo'minning qimirlab qo'ygani ko'rinadi (Sh.Xolmirzayev. Tabassum).

Ushbu misolda esa *ko'rinadi* hozirgi zamon fe'li o'tgan zamondagi ish-harakatni bildirish uchun xizmat qilyapti.

-(a)r -digan va *-ajak* qo'shimchalari ham, asosan, sifat-dosh yasovchi formantlar hisoblanadi va ishimizning keyingi bobida tahlilga tortildi.

Kelasi zamon fe'l shaklini hosil qiluvchi yana bir formant *-moqchi* qo'shimchasidir. Bu haqda A.Hojiyev shunday yozadi: "Bu affiks yordamida yasaluvchi fe'l formasi harakatning nutq momentiga nisbatan munosabatini ko'rsatmaydi, balki harakatni bajarish maqsadini (maqsad ma'nosini) bildiradi. Shunga ko'ra uni ijro maylining kelasi zamon formasi deb qarash mumkin emas" [5:130]. U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlar bu qo'shimcha bilan yasalgan fe'l shaklini o'rinli ravishda "kelasi zamon maqsad fe'li" deb hisoblaydilar [4:345]. Ingliz tilida ham xuddi shu ma'noni anglatish funksiyasini bajaruvchi *be going to* formanti qator adabiyotlarda kelasi zamon fe'lini hosil qiladi, deb hisoblanadi. Shuningdek, *-gu (-ku, -g'u), -gay* qo'shimchalari hozirgi o'zbek tilida kam qo'llaniladi.

Ingliz tilidagi kelasi zamon R.Deklerk tomonidan ikki turga bo'linadi: kelasi zamon (future tense) va kelajaklashgan shakllar (futurish forms). Ular o'rtasidagi farqni shunday tavsiflaydi: "Kelasi zamon vaziyat vaqtini hozirgidan kelgusi zamonga joylashtiradi va odatda "sof kelasi zamon"ni ifodalaydi. Kelasi zamonga ishora bo'lib(futurish forms), bu shakllar kelasi zamon emas va ular sof kelasi zamoni ifodalamaydi" [7:337].

Mazkur tildagi kelasi zamon fe'lining keng tarqalgan va neytral shakli *will* yordamchi fe'li va *to-siz infinitiv* bilan birgalikda yasaladigan va nodavomiy kelasi zamon deb nomlanuvchi shaklidir: *The next Olympic Games will be in Paris.*

Xuddi shunga o'xshash shakl *shall* yordamchi fe'li bilan yasalib, bu shakl faqat birinchi shaxs uchun rasmiy uslub uchun xarakterli, Britaniya ingliz tili so'zlashuv uslubida kam uchraydi, Amerika ingliz tili so'zlashuv uslubida undan ham kamroq kuzatiladi:

I shall entreat his pardon for not having done it earlier (J.Austen, *Pride and Prejudice*).

Kelasi zamonning *will* yordamchi fe'li bilan yasaladigan shaklining ikkilamchi funksiyasi sifatida birinchi shaxs uchun ham qo'llanishini keltirish mumkin: *I will not let any gloomy moralising intrude upon us here tonight* (J.Joyce, *Dubliners*).

Bu shakl *both of us, all of us, none of us, some of us* kabi birinchi shaxsdagi ko'plikni ifodalovchi birikmalar bilan ham ishlatiladi: *Both of us will go to America next year.*

Will/shall yordamchi fe'llari bilan hosil qilingan kelasi zamon shakllari "sof kelasi zamon"dan tashqari "oldindan aytish, bashorat qilish" ma'nolarini berish vazifasini ham bajaradi:

Yeah, and I will tell you, if I ever want to do that (S.Rooney, *Normal People*).

Will/shall yordamchi fe'llari modal fe'l funksiyasida ham ishlatilib, kelasi zamonga oid taklif, istak, va'da kabilarni bildirishi mumkin: *Shall I help you?*

Bu gapda *shall* bilan tuzilgan kelasi zamon shaklidan so'roq gap orqali so'zlovchining xizmatini taklif qilish vazifasini bajarishda foydalanilyapti.

She looks at him, maybe to see if he's joking, and then she lifts her chin at an angle, and he knows she won't back down from telling him about it (S.Rooney, *Normal People*).

Mazkur gapda *will not back down* rad qilish ma'nosini berish uchun xizmat qilyapti.

Will you bilan boshlanuvchi so'roq gaplarda taklif yoki talabni ifodalash kelasi zamon mazkur shaklining yana bir funksiyasidir:

Will you smoke, Tommy? (J.Joyce, Dubliners)

Yuqoridagi gapda *will* bilan yasalgan fe'l birikma taklif qilish ma'nosini beryapti.

Will/shall, be yordamchi fe'llari va asosiy fe'ning *-ing* qo'shimchasi bilan yasalgan shakli kelasi zamonning davomiy shakli deb ataladi va birlamchi funksiyasi sifatida kelasi zamonda ma'lum vaqtda davom etadigan ish-harakatni ifodalash uchun xizmat qiladi: *At 3 o'clock, I will still be doing my paperwork.*

Shuningdek, mazkur shakl oddiy kelasi zamonni bildirish vazifasini ham bajaradi:

Soon she will be packing things into suitcases: woollen jumpers, skirts, her two silk dresses (S.Rooney, Normal People).

Kelasi zamonning yana bir shakli *be going to+infinitiv* shaklida bo'lib, bu formant haqida R.Deklerk shunday yozadi: "*be going to* yordamchi fe'li asosan nuqt momentida hozirgidan keyingi vaziyatni bashorat qilish mumkin bo'lgan, chunki uning kelib chiqishi hozirgi vaqtga taalluqli bo'lganda yoki bu vaziyat kelajakda sodir bo'lishini ko'rsatuvchi hozirgi asos bor bo'lganda ishlatiladi. Bundan tushunish mumkinki, mazkur shaklni "kelasi zamon shakli" emas, "kelajaklashgan shakl" deyish to'g'riroqqa o'xshaydi. Biroq, shunday holatlar borki (ayniqsa, norasmiy ingliz tilida), bu shakl qo'llanganda, hozirgidan kelgusi vaqtning voqelanishi hozirgi davrdan ko'ra kelgusi davrga ishora qiladi (*It is going to rain tomorrow* kabi), bunda *be going to* va *will* o'rtasidagi farq uncha ko'rinmaydi" [7:345]. Quyidagi gapda buning isbotini ko'rish mumkin: *The Prime Minister will / is going to attend the summit next Wednesday.* Bu gapda *will* ham, *is going to* ham bir xil ma'noni ifodalash vazifasini bajaradi.

Quyidagi misolda esa *be going to* biror shaxsning kelajakka taalluqli hozirda mavjud bo'lgan niyatini bildiriyapti:

Not that I'm saying this guy Lukas is going to be your boyfriend (S.Rooney, Normal People).

Umumiy so'roq gaplarda ham mazkur shaklning qo'llanilishi niyatning oldindan o'ylab qo'yilganligini ifodalaydi:

Eh? Are you going to stand there all day? Upon my word, Farrington, you take things easy! (J.Joyce, Dubliners).

XULOSA

Fe'ning hozirgi va kelasi zamon shakllari o'zbek tilida ham, ingliz tilida ham bir necha funksiyalarga ega bo'lgan sinkretik tabiatli birliklar sifatida ko'zga tashlanadi, ularning xilma-xil funksiyalari nutq jarayonida namoyon bo'ladi. Chog'ishtirilgan tillarda kelasi zamon shakllari o'zining sinkretik tabiatini reallashtiradi va polifunksional xususiyatini namoyon qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ганиева, Д. А. (2016). PROBLEM OF PRIMARY AND SECONDARY FUNCTIONS IN LINGUISTICS. Ученый XXI века, (5-1 (18)), 66-68.
2. Рахматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. Биринчи китоб. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2010.
3. Смирницкий А. Морфология английского языка. – Москва: Издательство литературы на иностранных языках, 1959.
4. Турсунов У., Мухторов А., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
5. Ҳожиёв А. Фёъл. – Тошкент: Фан, 1973.
6. Azizovna, G. D. Ismoilova Dilorom Rustamjon qizi.(2023). Theoretical foundation of structural linguistics. Scientific Journal of the Fergana State University, 28(4), 28.
7. Declerck R. The Grammar of the English Verb Phrase. Volume 1: The Grammar of the English Tense System. Berlin: Mouton de Gruyter, 2006.
8. Ganieva, D. A. (2022). Syncretism and polyfunctionality of the grammatical category of mood. Current research journal of philological sciences, 3(10), 67-74.
9. Ganieva, S. A. (2023). The process of phraseologicalization and asymmetric dualism. American Journal of Philological Sciences, 3(02), 12-16.
10. Huddleston, R., Pullum, G.K. The Cambridge Grammar of the English Language. Cambridge: Cambridge University Press, 2002.
11. Iskandarova, S., Karimova, S., & Abdukarimova, M. (2021). Negative prefixes in english and uzbek languages. Збірник наукових праць SCIENTIA.
12. Kosimova, M. U. (2022). The development process of the subject of stylistics and its main tasks. Current research journal of Philological sciences, 3(11), 1-7.
13. Mashrabovna, N. M., & A'zamjonovna, Y. S. (2022). Theoretical concept of politeness basics in different-regional variations. Ijodkor o'qituvchi, 3(25), 25-27.
14. Mukhtorovna, Y. S. (2023). The history of " wise words" in linguistics. Journal of language and linguistics, 6(4), 29-32.
15. Palmer F.R. The English verb. London: Longman, 1988.